

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT
KO'RSATISH**

Qurbanova Movluda

Talabasi, Jamoat xavfsizligi universiteti

Xaydarov I.

Ilmiy rahbar

Annotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lismiz tizimini tubdan takomillashtirish, maktabgacha ta'lismiz tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lismiz tashkilotlarida yuqori malakali, o'z kasbining yetuk mutaxassisib bo'lgan tarbiyachilarining ish olib borishi, umumiy qilib aytganda, maktabgacha ta'lismiz sifatini yaxshilash, bolalarning kichik yoshidan boshlab bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: bolalar psixologiyasi, pedagogik va psixologik bilimlar, maktabgacha ta'lismiz tashkiloti, psixologik xizmat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lismiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lismiz boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "PF-5198-sonli Farmoni,O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismiz tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 10-maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta'lismiz tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bundan ko'rinish turibdiki,maktabgacha ta'lismiz muassasalarida ta'minlash,yosh avlodni bilim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish,qiziqishlariga qarab yo'naltirish kabi bir qancha vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida sog'lom psixologik muhitni ta'minlash, psixologik xizmat sohasini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida psixologik xizmatni yo'lga qo'yish va bu sohani yanada rivojlantirish uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratildi.Ta'lismiz tizimidagi psixologik xizmatni rivojlantirishdan ko'zlangan asosiy maqsad bolaning aqliy va ruhiy salomatligini ta'minlashdir.Maktabgacha ta'lismiz tashkilotida bolalarda yuzaga kelgan muammolar bo'yicha bolalar psixologiga o'z vaqtida murojaat qilish lozim. Bu esa maktabgacha ta'lismiz tashkiloti psixologidan qisqa muddatli ish dasturini tuzib chiqishni talab qiladi.Bunda psixolog har bir holatga alohida e'tibor berishi,o'tkazilayotgan trening uzoq davom etmasligi,bola bilan ishonchga asoslangan munosabatni o'rnatish,muloqotga do'stona,iliq ohang baxsh etish,bolani o'z oldiga o'tqazish,bolaning xatolariga ortiqcha e'tibor bermaslik,sinov

sur'atlarini bolaning individual-psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarur. Bolalar bir marotaba psixolog xizmatidan baxra olganlaridan so'ng va uning natijasi ijobiy tomonga o'zgarganini his qilsalar, nafaqat maktabgacha ta'lif tashkiloti psixologiga nisbatan ishonch va hurmat paydo bo'ladi balki boshqa tarbiyachilarga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo'ladilar. Shu sababdan psixolog individual va guruhli ishslash jarayonida hech bir holatni va bolalar xususiyatini ko'zdan qochirmasligi kerak.

Ko'p holatlarda ota-onalar farzandini qiziqishlarini cheklab qo'yadilar. Bolaga "uni qilma", "bu senga foyda keltirmaydi" kabi so'zlarni ko'p ishlatishadi. Unga xato qilib, xulosa chiqarib, uni to'g'irlash uchun yo'l topishiga sharoit yaratib bermaydilar. Kattalarning talab va vazifalaridan charchagan bolalar bora-bora umidsiz, o'zlariga nisbatan ishonchsiz bo'lib boradilar. O'z fikrini erkin bildirmay, odamovi bo'lib qoladilar. Bolaga bunday munosabatda bo'lish, ularni o'z ichki olamlari bilan qiziqmaslik demakdir. Natijada esa, ularni u olamdan ortga qaytarish qiyin kechadi.

Bunday holatlarda maktabgacha ta'lif tashkiloti psixologi quyidagi yo'nalishlar asosida ish faoliyati olib borsa, samarali natija oladi.

Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari:

- psixologik ma'rifat va tashviqot;
- psixologik profilaktika;
- psixologik korreksiya;
- psixologik maslahat;

Bundan ko'rinish turibdiki, psixologik xizmatning maqsadi tarbiyalanuvchilarning ma'naviy va aqliy rivojlanishi, barkamol shaxs sifatida shakllanishi, faol ijtimoiy moslashuvi va ularning yosh davrlari bo'yicha rivojlanishida salomatligini muhofaza qilish, uzlusiz ta'lif jarayonida o'zligini anglashi, individual psixologik xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Maktabgacha ta'lif ertangi kunimizga zamin"dir. Shu bois yosh avlodni tarbiyalashda poydevor bo'ladigan maktabgacha ta'lif tashkilotlariga asosiy e'tibor qaratilishi lozim. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to maktabgacha tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarni bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. 2017-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni
2. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori
3. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.-T.:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.160b.